


The image shows a laptop on a desk with a dashboard on the screen. The dashboard includes several key performance indicators (KPIs) and charts. The KPIs are: Total Users (2500), Access Time (1.51 Sec), Total Value (2,500), Total Items (4,567), Total Collections (2,315), and Total Customers (7,325). Below these are sections for Network Activities, User Signups, Connected Sales, and Profit Rate. The background of the dashboard is a light blue with abstract shapes.

# Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi 2023- yil yanvar-may oylari

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi - milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-hilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejaliishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli hildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 327,3** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **401,2** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,3** % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

(2023- yil yanvar-may oylarida)

2 327,3 mlrd.  
so'm

109,3 %

401,2 mlrd.  
so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi



2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2 327,3</b>	<b>109,3</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	139,6	125,0
Moliyaviy xizmatlar	781,5	113,6
Transport xizmatlari	280,1	103,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	258,7	102,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	60,6	106,0
Savdo xizmatlari	574,2	105,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	58,7	105,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	87,1	107,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	51,5	103,7
Ijara xizmatlari	36,2	85,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	55,5	102,1
Shaxsiy xizmatlar	46,0	105,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,3	92,0
Boshqa xizmatlar	137,0	125,8

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich

Nisbatan yuqori ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni moliyaviy xizmatlar egallaydi. 2023- yilning yanvar-may oylarida ularning ulushi 33,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar savdo (24,7 %), transport xizmatlari (12,0 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,0 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz kamayish qayd etilib, ularning ulushi **0,8 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **32,2 %** ni tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida me'morchilik sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatkichga ega bo'lgan – **1,0 %**.




Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatda texnik jihozlanish darajasining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2023- yilning yanvar-may oylarida yuqori o'sish aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (125,0 %), boshqa xizmatlar (125,8 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **123,2 %**.

Boshqa xizmatlarda esa ushbu davrda ko'tarilish kuzatilgan – **120,0 %**.

Transport xizmatlarining o'sish sur'ati, % da  
(2023- yil yanvar-may oylarida)



2023- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlarining yuqori o'sishiga Boyovut (103,7 %), Sayxunobod (103,6 %), Mirzaobod (103,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining biroz pasayish sur'ati Sardoba (102,8 %) va Guliston (102,9 %) tumanlarida qayd etildi.



2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **24,7 %** ni tashkil etib, bu esa **574,2** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-may oylarida ularning hajmi **485,1** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **25,2 %** ga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari




2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i **68,6 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2023- yil yanvar-may oylarida)




**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **70,2 %** ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da  
(2023- yilning yanvar-may oylarida)



■ Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda

■ Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo xizmatlarining eng katta ulushi Guliston (**80,8 %**), Oqoltin (**78,1 %**) va Sardoba tumanlarida (**73,7 %**), Yangiyer shahrida (**81,6 %**) kuzatilmoqda.



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo ulushi Guliston tumanida maksimal darajaga yetgan – **80,9 %**.



Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich nisbatan past. Bu yerda chakana savdo ulushi 41,7 % ni tashkil etdi. Biroq, bu tumanda ulgurji savdoda xizmatlar ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) ancha katta – 53,9 % ulushni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida Sayxunobod tumanida ulgurji savdo xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 55,0 % ni tashkil etgan.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidagi xizmatlarning nisbatan yuqori ulushi Mirzaobod (**29,9 %**), Oqoltin (**14,0 %**), Sardoba (**11,4 %**) va Guliston (**9,7 %**) tumanlarida qayd etildi.



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida ushbu xizmat turining salmoqli ulushi Mirzaobod tumaniga to'g'ri kelgan – **29,8 %**.



2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-may oylarida)

2023- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **781,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **620,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **33,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida ularning ulushi **32,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmi **160,7** mlrd. so'mga oshdi.

2023- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **113,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida ularning o'sish sur'ati **113,9** % ni tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **93,2 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,4 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,4 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
(2023- yil yanvar-may oylarida)



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,1 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,1 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,8 %**.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2023- yilning yanvar-may oylarida)

2023 - yilning yanvar - may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **139,6** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2022- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **125,0 %** ni tashkil etgan.

#### Taqqoslash uchun:


2022- yilning yanvar-may oylarida ushbu xizmat turi hajmi **109,7** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,7 %** ulushiga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **123,2 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Jami hajmdagi ulushi

Xizmatlar hajmi


2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2022- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifati ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2023- yilning yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **87,1 mlrd.** so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **3,7 %** ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil etdi.




2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sirdaryo (6,5 mlrd. so'm), Sayxunobod (1,8 mlrd. so'm), tumanlarida shuningdek, Guliston (70,8 mlrd. so'm) va Yangiyer (3,0 mlrd. so'm) shaharlarida qayd etildi.

**Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mlrd. so'm**  
(2023- yil yanvar – may oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar - may oylarida Guliston shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 64,1 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

52,0 mlrd.  
so'm

60,6 mlrd.  
so'm

Xizmatlar hajmi

2022- y.  
yanvar-may

2023- y.  
yanvar-may

103,4 %

106,0 %


O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 8,6 mlrd. so'mga ortgan.


2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2022- y. yanvar-may



2023- y. yanvar-may



Yashash bo'yicha  
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

2023- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,1** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **88,5** % ni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli hil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2023- y. yanvar-  
may



2022- y. yanvar-  
may





2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-may oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2 327,3</b>	<b>109,3</b>	<b>111,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	990,1	105,6	113,2
Shirin	32,4	112,5	109,7
Yangiyer	159,6	102,0	113,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	216,0	136,3	103,0
Guliston	103,9	119,0	101,8
Mirzaobod	121,4	112,0	100,1
Oqoltin	75,7	119,0	102,1
Sardoba	88,0	119,6	117,0
Sayxunobod	107,2	121,2	109,6
Sirdaryo	310,2	111,1	112,9
Xovos	122,9	119,7	109,6


2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, Respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da**  
(2023- yil yanvar – may oylarida)



2023- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Guliston shahri tashkil etdi – **42,5 %** (2022- yilning yanvar-may oylarida – **46,1 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Shirin shahrida – **1,4 %** (2022- yilning yanvar – may oylarida ham – **1,4 %**) qayd etilgan.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

2 589,4  
ming so'm

Hajmning  
o'sishi

402,7  
ming so'mga



107,1 %

O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 589,4** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish surati **107,1%** ni tashkil etdi.

#### **Taqqoslash uchun:**

2022- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 186,7** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,7%** da qayd etilgan.

2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni



2023- yilning mos davriga nisbatan ular soni kamaygan

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

Ularning umumiy sonidagi ulushi



2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**50,4 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **7,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **3,8 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,8 %** ga teng bo'ldi.

Savdo – 50,4

Boshqa turdagi xizmatlar – 34,1

Yashash va ovqatlanish – 7,7

Tashish va saqlash – 3,8

Axborot va aloqa – 1,8

Sog'liqni saqlash – 2,2

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi.


2023- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



← 50,2 %

2023- yil yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **50,2 %** ni tashkil etdi.

### 2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi **76,2 %** ga to'g'ri keldi.

